FALSAFA

UDK: 165:297.2"(04/15)" DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a20

O‘RTA ASRLAR ISLOM OLAMIDA GNOSEOLOGIK FAOLIYATNING TEOLOGIK ASOSLARIGA DOIR QARASHLAR

ВЗГЛЯДЫ НА ТЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ ГНОСЕОЛОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СРЕДНЕВЕКОВОМ ИСЛАМСКОМ МИРЕ

VIEWS ON THE THEOLOGICAL FOUNDATIONS OF GNOSEOLOGICAL ACTIVITY IN THE MIDDLE AGES ISLAMIC WORLD

[1]Qoraboyeva Moxidil Shukurjon qizi
[1]Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada islom falsafasida aql muammosi, ilmiy faoliyatning aksiologik mezonlari, din va fan, din va falsafa o‘rtasidagi munosabatlar tizimlashuvining deterministik, dialektik bog‘liqligi, intellektual faoliyatga qo‘yiladigan axloqiy talablar, musulmon madaniyatida fanga munosabatning islomiy asoslari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье анализируется проблема разума в исламской философии, аксиологические критерии научной деятельности, детерминистская, диалектическая связь систематизации отношений религии и науки, религии и философии, нравственные требования к человеческой деятельности, исламские основы отношения к науке в мусульманской культуре.

Abstract

The article analyzes the problem of reason in Islamic philosophy, axiological criteria of scientific activity, deterministic, dialectical linkage of the systematization of relations between religion and science, religion and philosophy, moral requirements to human activity, Islamic bases of attitude to science in Muslim culture.

Kalit so‘zlar: *islom, aql, ijod, faylasuf, olim, intellekt, determinizm, vorisiylik, aksiologiya, gumanizm.*

Ключевые слова: *ислам, интеллект, творчество, философ, ученый, интеллект, детерминизм, преемственность, аксиология, гуманизм.*

Key words: *Islam, intelligence, creativity, philosopher, scientist, intellect, determinism, succession, Axiology, humanism.*

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekistonda islom falsafasini shakllanish va rivojlanish jarayonlarini tadqiq etish, islom dinining tinch-osoyishta hayotga, boshqa xalqlarga hurmat, mehr-oqibat ko‘rsatib yashashga da’vat etadigan asl insonparvarlik mohiyatini har tomonlama o‘rganish va targ‘ib etishga katta ahamiyat berilmoqda. Chunki, “dunyodagi ayrim kuchlar islomga qarshi kayfiyatni kuchaytirgan holda, islom dinini terrorizm mafkurasi bilan bog‘lashga urinayotganini ming afsus bilan qayd etishga to‘g‘ri keladi. Bu omil islom olamini yanada jipslashishga chorlayotganligi”[1,457] ham uning mazmun-mohiyatini, falsafiy asosini chuqurroq o‘rganishni talab etadi. Islom falsafasini kontseptual asoslarini chuqur o‘rganish, falsafiy mohiyatini teran tahlil qilish turli adashishlar, qarama-qarshiliklar va tushunmovchiliklarni oldini olishga hizmat qiladi.

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida islom falsafasining shakllanishi va rivojlanish tendentsiyalarini, unda ilm olish, bilimli bo‘lish, olimlik va odamiylikga bo‘lgan munosabatning shakllanishi, qadriyatlarning qaror topishi va rivojlanib borishi jarayonlarini falsafiy tafakkur taraqyoti nuqtai nazaridan tadqiq etish, o‘rganilmagan jihatlarini yoritish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Davlatimiz rahbari fikricha, “insoniyat tarixidagi noyob hodisa bo‘lgan musulmon Renessansi ana shu buyuk ajdodlarimizning diniy bag‘rikenglik va insonparvarlik borasidagi ezgu g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan edi. Bu g‘oyalar bizning davrimizda, O‘zbekiston mustaqilligi yillarida alohida, yanada teran ma’no-mazmun kasb etib bormoqda”. Shu bois mazkur o‘rganishlarni davom ettirish, takomillashtirish hamda islomning ilmni, intellektual qadriyatlarni qadrlashga bo‘lgan yondashuvlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Islom dinining paydo bo‘lishi va uning hukumron mavqega aylanishi bilan islomga asoslangan yangi madaniyati taraqqiy eta boshladi va uning aqidalariga to‘g‘ri keladigan e’tiqodlar, ta’limotlar va axloqiy normalar arablar tomonidan butunlay yo‘q qilindi. Islom falsafasining shakllanishi to‘rt asr davom etdi va bu jarayon turli millatlar va ularning o‘ziga xos madaniyatlaridan

tarkib topgan musulmon madaniyati, musulmon sivilizatsiyasining taraqqiy etishi bilan birga kechdi. Turli madaniyatlarning yaxshi tomonlarini o‘zlashtirgan va ularning ma’rifiy asoslari bilan oziqlangan tamaddun yaraldi. “Bundan ma’lum bo‘ladiki, islom dini qotib qolgan va hech qanday o‘zgarishni qabul qilmaydigan din emas. Aksincha, u insonlar ehtiyojini har doim hisobga olgan. Din ko‘rsatmalarini tatbiq qilishda voqelikni inobatga olmaslik, haddan oshish katta xatolarga olib kelishi va jamiyatda turli ixtiloflar avj olishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada shariatning maqsadiga olib boradigan yo‘llar berkilib, xalq mashaqqatga duchor bo‘ladi. Shu bois yangi muammolarni hal qilishda voqelikni chuqur o‘rganish hamda shariat ko‘rsatmalarini shunga muvofiq ravishda tatbiq etish lozim”[2,13]. Buning uchun esa islomdan chuqur xabardorlik, islom falsafasini bilish va mohiyatini anglash talab etiladi. Shuning uchun ham, islom falsafasining o‘rganilmagan jihatlarini yoritish, keng ommaga falsafa ilmi nuqtai nazaridan tushuntirish muhim ijtimoiy vazifalardan biridir.

O‘rta asr islom olamida bilimga bo‘lgan munosabat Yunon-Rim falsafasidagidan farqli o‘laroq aniq bir maqsadga yo‘naltirilganligi, sobitqadamligi bilan ajralib turar edi. F.Rouzentalning ta’kidlashicha: “islomgacha arablar madaniyatida shakllangan bilim kontseptsiyasining mazmuni dinga nisbatan shubhalardan xolis edi va yangi diniy (ya’ni islomiy) harakatda muhim ahamiyat kasb etishga tayyor bo‘lgan”[3,40]. Shu bilan birga bu tadqiqotchi islomda bilim kontseptsiyasining shakllanishiga tashqi (masalan, xristianlik ta’limotidagi gnostik qarashlar) omillar ta’sir qilganini rad etmasada, buni isbotlovchi dalillar hali topilmagan va u hozirda faqat ilmiy faraz ekanligini ta’kidlaydi[3.45]. Islom madaniyatida musulmon ilohiyotchilari “bilim” tushunchasiga to‘g‘ri keluvchi ta’rif izlash ishiga katta xissa qo‘shganlar. Har bir ilohiyotga doir kitob “ilm” ta’rifini muhokama etuvchi ”Bilim kitobi” deb nomlangan qismga ega bo‘lgan. Bu an’anani, F.Rouzental fikricha, Ismoil al-Buxoriy boshlab bergan. Al-Buxoriyning “Bilim kitobi” “oliy ta’lim metodikasiga” bag‘ishlangan, ya’ni uning davrida “bilim” metodologiyasini muhokama qilish hadisshunoslikning ajralmas qismi hisoblangan. Keyinchalik hadisshunoslikda, kalomda “bilim” muammosini muhokama qilish yana bir muhim maqsadga - bilimning haqiqiy dinga doir imon bilan bog‘liqligini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqotlarda islom falsafasidagi gnoseologik faoliyat bilan bog‘liq jarayonlar turli tushunchalar bilan izohlanadi. Tadqiqotlarda ishlatiladigan tushunchalar g‘arblik va sharq olimlar o‘rtasida baxslarga sabab bo‘lmoqda. Bu yangi madaniyatning ilohiyot, falsafa, adabiyot, arxitektura kabi sohalarida islomning (mafkura sifatida) va arab tilining (fan tili sifatida) ta’siri kuchli bo‘lgan. Shuning uchun ilmiy adabiyotda (ko‘pincha g‘arb sharqshunoslari tomonidan) “arab”, “arab zabon”, “arab-musulmon”, “islom” falsafasi, fani, adabiyoti degan tushunchalar ishlatiladi. Hozirgi davrda Markaziy Osiyo hududida o‘rta asrlarda shakllangan va islomga asoslangan madaniyatga nisbatan “musulmon madaniyati” (“islom madaniyati”) va xuddi shunday - “musulmon falsafasi” (“islom falsafasi”) yoki “musulmon adabiyoti” kabi tushunchalar ishlatiladi. Bu tushunchalarning o‘z mazmunini qanchalik to‘g‘ri aks etishi masalasi munozarali bo‘lib, falsafa tarixiga bag‘ishlangan adabiyotlarda u yoki bu darajada o‘z ifodasini topgan. Lekin sharqshunos olimlar bu masalani hal etishda yagona bir fikrga kelmaganlar. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf fikricha, “Evropaliklar o‘zlarining vaziyatidan, zehn va tushunchasidan kelib chiqib, “Islom” va “musulmon” so‘zlari o‘rniga asosan “arab” so‘zini ishlatadilar. Misol uchun, “Islom madaniyati” deyish o‘rniga “arab madaniyati” deyishadi. Buning o‘ziga yarasha sabablari bor. Yillar davomida butunlay aslini yo‘qotgan nasroniy dinidan mislsiz yomonliklar ko‘rgan yevropaliklar din desa ko‘ngillari ozadigan darajaga borib qolganlar. Ularning tushunchasiga ko‘ra ilm-fan, taraqqiyot, bahtli hayot, erkinlik kabi yaxshiliklar dindan, dindorlardan chiqishi mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun ham mazkur yaxshilikni Islomga, musulmonlarga ham nisbat berishga tillari bormaydi. Islom sharofati bilan sodir bo‘lgan yaxshiliklarning barchasini arablarga nisbat beraveradilar”[4,4]. Shuningdek, Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf islom dinining payg‘ambari, deyarli barcha sahobalar ham, barcha ilmiity ishlvar arab tilida olib borilganligi uchun ham “Islom falsafasi” o‘rniga g‘arbliklar tomonidan “Arab falsafasi” istilohi ishlatilishiga e’tibor qaratadi. Shunday ekan islomning ilm-fan taraqqiyotidagi o‘rnini, o‘rta asrlar islom falsafasining gnoseologik qadriyatlarni shakllanishi, rivojlanishi va ilmiy inqiloblarni yuzaga kelishidagi o‘rnini aniq misollar va dalillar bilan ko‘rsatib berish zarurati ham ortib bormoqda.

Boshqa bir tadqiqotlarda ham islom falsafasining paydo bo‘lishini islomlashish jarayonlari

bilan birga gnoseologik faoliyatning shakllanishi, mantiqiy mushohadakorlikning rivojlanishi, faoliyatda aqlga tayanishning boshlanishi bilan ham bog‘lashadi. Misol uchun, faylasuf-olim M.Qodirovning tahlillariga ko‘ra, o‘rta asrlar musulmon Sharqida falsafiy tafakkurning paydo bo‘lish tarixi yozma ravishda VIII asrga taalluqli bo‘lib, ilk kalom vakillari bo‘lgan mo‘taziliylarning faoliyati bilan bog‘liqdir. Ilohiyot bahslarida o‘zlarining qat’iy aqlga tayanishlari bilan alohida ajralib turgan ilohiyotchilar guruhi bo‘lgan mo‘’taziliylar Bag‘dodda xalifa Ma’mun saroyida katta nufuzga ega bo‘ldilar. Insonning iroda erkinligi va ilohiy sifatlar masalasini muhokama qilishdan o‘z faoliyatlarini boshlagan mo‘taziliylar shunday ta’limotni ishlab chiqdilarki, u diniy mavzudan chetga chiqish bilan cheklanmasdan, hatto musulmonchilik e’tiqodining ba’zi aqidalarini ichdan buzar edi. Masalan, ularning qayd etishlaricha, tabiat qonunlarigagina muvofiq faoliyat ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan Allohga qarama-qarshi o‘laroq, inson o‘z irodasicha har qanday xatti-harakat ko‘rsatishi mumkin edi. Uning uchun ezgulik va yovuzlikning yagona mezoni sifatida uning aqli xizmat qilmog‘i lozim edi. Ular birinchi bo‘lib Xoliqni inson qiyofasida tasavvur etishga qarshi chiqib, unga majhul ilohiylik g‘oyasini qarama-qarshi qo‘ydilarki, o‘z mohiyatiga ko‘ra u iroda, qudrat, bilim va boshqa sifatlardan holi edi. Jumladan, xudoda nutq borligini inkor etib, Qur’onning abadiyligi haqidagi ta’limotni rad etdilar. Qur’onni bunday talqin qilish mo‘’taziliylarga va keyinchalik arastuchilarga uni ramziy ma’noda tushunishga imkon berib, o‘z qarashlarini unga muvofiqlashtirishga yo‘l ochdi[5,13]. Shunday ekan, o‘rt asrlar islom madaniyatida aqlning ustuvor ahamiyati, insonnning ratsional-ilmiy faoliyatini qadrlana boshlashi boshqa jarayonlar bilan parallel ravishda sodir bo‘ldi va natijada islom tsivilizatsiyasi yuzaga keldi.

“Islom ensiklopediya”sida islomning muhim xususiyatlaridan biri – uni qabul qilgan xalqlar vakillari uchun islom aqidalarini ishlab chiqishda ishtirok etish imkoniyatini berilganligi bayon qilinadi. Shuningdek, entsiklopediyaga ko‘ra, islom o‘ziga xos 3 taraqqiyot bosqichi yoki davrni bosib o‘tadi. Birinchisini shartli ravishda, Qur’on davri deb atash mumkin. Qur’oni karimda o‘z aksini topgan Arabiston aholisining diniy ongi darajasini ifoda etuvchi diniy-siyosiy va ijtimoiy qarashlar, huquqiy va axloqiy mezonlar butun musulmon olami uchun hozirgacha shak-shubhasiz umumiy qadriyat hisoblanadi. Deyarli to‘rt asr davom etgan ikkinchi davr islomda umumislomiy ahkomlar hukmronligi ostida turli fikrlarga yo‘l qo‘yilgani bilan ajralib turadi. Islomdagi yo‘nalishlar, mazhablar va firqalar ana shu davrda paydo bo‘ldi. Musulmonlarning diniy birligi muammo bo‘lib qoldi. X-XI asrlarda an’anaga sodiq sunniylar bilan imomiy shialar, mu’taziliylar hamda ash’ariylar o‘rtasida munosabatlar, ayniqsa, keskinlashib ketdi. Islomdagi uchinchi taraqqiyot bosqichi musulmon dunyosi “chekka” o‘lkalarining ahamiyati va o‘rni ortgani bilan bog‘liqdir. Batamom o‘zga madaniy an’analarga ega bo‘lgan xalqlar musulmon dunyosining ma’naviy hayotiga qo‘shilgach, islomga o‘z diniy-axloqiy tasavvurlari, huquqiy me’yorlari va odatlarini olib kirdilar”[6,216]. Demak, islomning uch taraqqiyot bosqichida uning aqidaviy, axloqiy, fiqhiy va intellektual asoslari sayqallanib bordli va o‘zining yuksak nuqasiga ko‘tarildi.

“Islom ma’rifati va hozirgi zamon” risolasida keltirilishicha, “islom dini hamma zamon uchun muvofiq keluvchi dindir. Bu fikrning mohiyati shundaki, islom ilm-fan, taraqqiyot va kishilar hayotini yengillashtirishga sabab bo‘luvchi omillarni barcha zamon va makonda qo‘llab-quvvatlab kelgan. Shunga qaramay, dinni dogmatik shaklga solishga urinuvchi, islom ko‘rsatmalari keskin va har qanday o‘zgarishdan xoli, deb talqin qiluvchi toifalar uchrab turadi”[2,7]. Biroq, islom dini shakllanishida va o‘zining rivoji cho‘qqisida bunday dogmatik fikrlar o‘rnini asl islomiy ma’rifatga asoslangan qarashlar band etgan edi. O‘rr asrlar islom madaniyatini shakllanishida islom dini va uning ta’sir vositalarining to‘g‘ri ishlab chiqilganligi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Islom madaniyatining ilk davrlarida barcha muammo va masalalarni hal etishda vahiy va payg‘ambar Muhammad alayhissalom tushuntirishlari, keyinchalik Qur’on, hadislar hamda sahoba va tobe’inlar obro‘siga tayanish qabul qilingan edi. Shuning uchun ilk musulmonchilikda an’anaga, ya’ni Qur’on, Sunna, taqlidga tayanish ustunlik qilgan. Shu bilan birga bu davrda avvalo shariat rivojlanadi. Shariat ma’nosi – to‘g‘ri yo‘l, ilohiy yo‘l, qonunchilikni anglatadi. “Islom paydo bo‘lganidan keyin, oradan 60 yil o‘tmay, islom davlatining tili, madaniyati va me’morchiligi Fors yeridan to Shimoliy Afrikagacha bo‘lgan ulkan hududga tarqaldi. Endi ummaviylar sulolasining hukmdorlari o‘z hokimiyatining mutlaq ramzi bo‘lmish ulkan jome’ masjidini barpo etdilar”[4,41]. Yangi musulmon jamiyati uchun jamiyatdagi munosabatlarni tartibga solish masalasi dolzarb bo‘lgan. Demak, ilk musulmon jamiyati avvalo islom dini, shariatga asoslangan qonun-qoidalarni ishlab chiqadi. Bu jarayonda islom ilohiyotining fiqh sohasi (musulmon huquqshunosligi) paydo bo‘ladi. Fiqh ilmining rivojlanish jarayonida shariat (fiqh) mazhablari (hanafiyya, malikiyya, shofi’iyya, xanbaliyya hamda

jafariyya) vujudga keladi. Ular, ortodoksal huquq doirasidan chiqmagan holda, shariat masalalarida yengilroq yoki jiddiyroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farq qiladi. Musulmon huquqi tizimining mufaqqihlar (huquqshunoslar) tomonidan mukammal ishlab chiqilgani hozirgi zamon tadqiqotchilari tomonidan tan olingan (bunga misol qilib, Burhoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya fi furu’ al-fiqh” (“Fiqh sohalari bo‘yicha qo‘llanmasini”) keltirish mumkin. Shunday murakkab tizimni ishlab chiqish jarayonining o‘zi aqlga murojaat qilishni (ya’ni ratsionalizmdan foydalanishni) talab etgan, albatta. Shuning uchun huquqiy mazhablar o‘z faoliyatida, ya’ni huquqiy masalalarni hal etishda, shariatni amalga oshirishda Qur’on va hadislar, an’anaga, shariat tamoyillariga tayanish bilan birga aqlga, shaxsiy mustaqil fikrga tayanishni maqbul deb topganlar. Bunga miol sifatida ularning ijmo, qiyos, ra’y usullaridan foydalanishganini ta’kidlash mumkin.

Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf fikricha, “Damashq jome’ masjidining minorasi tomida quyosh soati o‘rnatilgan bo‘lib, uni XIII asrda Ibn Shotir yasagan. Bu quyosh soati masjidning hovlisi va devorlarini bezab turgan, zero, Islomda har kungi besh mahal namoz vaqtlari quyoshning osmondagi joylashuviga bog‘liqdir. Quyosh soatisiz vaqtni aniqlashning imkoni bo‘lmagan. Ushbu quyosh soati bugungi kunda ham amalda bo‘lgan vaqt taqsimini – bir kecha-kunduzdagi 24 soatni ko‘rsatishi bilan birga, namoz vaqtlarini ham ko‘rsatib turadi. Aniq vaqtdan tashqari, musulmonlar yer sharining qaysi nuqtasida turganini bilishlari ha zarurdir. Chunki musulmonlar sayyoramizning qaysi burchagida bo‘lishidan qat’i nazar, o‘sha yerga nisbatan Makkai mukarrama qaysi tomonda joylashganini bilishlari lozim, zero, nomozning qiblasi – Makkai mukarrama shahridir. Demak, musulmonlar quyosh, oy va boshqa sayyoralarning harakatlanishiga qarab, aniq vaqtni va turgan joylarini aniqlay olishlari lozim. Yaratganga bo‘lgan iymon ushbu quyosh soatini o‘rgatgan odamlarning ilmga bo‘lgan intilishini to‘smagan, aksincha ularni borliqning mohiyati va uning sir-asrorlarini, qonuniyatlarini o‘rganishga, bilishga undagan. Bu ilmiy tadqiqotlar faqat namoz vaqtlari va qiblani aniqlash uchungina olib borilmagan, bu intellektual intilishlarga dunyoni bilish, uni anglash ishtiyoqi ham sabab bo‘lgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Qur’oni Karimda insonni tevarak-atrofga, borliqqa, undagi cheksiz hikmat bilan yo‘g‘rilgan mukammallikka, go‘zallikka aql ko‘zi bilan nazar solish, samo jismlarining aniq harakatini kuzatib, aql yuritishga, jumboqlarga javob topib, muammolarga yechim topib, olamdagi sababiyat qonunlarini kashf etishga chiqaruvchi oyatlar juda ko‘pdir”[4,55]. Umuman olganda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jabhalarda ko‘plab o‘zgarishlar falsafa, tabiiy-ilmiy bilimlar rivojida muhim obyektiv va subyektv shart-sharoitlarni vujudga keltirgan. O‘z navbatida Movarounnahr diyorida ham ilm-fan ravnaqi uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan. Aytish mumkinki, bunday imkoniyatlar XX asrning boshlarigacha hech vaqt vujudga kelmadi. Bu muammo butun Yaqin va O‘rta Sharqqa, hatto Xitoy va Hindistonga ham xos xususiyatdir. Shu boisdan bo‘lsa kerak, Sharq mamlakatlari Yevropadan orqada qolib ketdi. Hozirgi zamon ingliz va rus olimlarining fikricha, buning sababi Sharqda hozirgacha milliy innovatsion tizimning yo‘qligidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018.

2. Abdullaev A. Islom ma’rifati va hozirgi zamon. –Toshkent.: Toshkent islom universiteti. 2017.

3. Rouzental F. Torjestvo znaniya. Kontseptsiya znaniya v srednevekovom islame.- Moskva.: Nauka, 1978.

4. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Olam va odam, din va ilm. –Toshkent.: “HILOL-NASHR” nashriyoti. 2019

5. Qodirov M. Markaziy osiyo, yaqin va o‘rta sharqning falsafiy tafakkuri (o‘rta asrlar). O‘quv qo‘llanma. - Toshkent.: ToshDSHI nashriyoti. 2009.

6. Islom entsiklopediyasi. –Toshkent.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” DIN,2004.